



SHE'RIYATDA MUHABBAT VA HIJRON KECHINMALARINING BADIY TALQINI (Shuhrat ijodi misolida)

Soatova Nodira Isomitdinovna,

Jizzax davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

ORCID 0000-0002-4310-6011

nodira.soatova@list.ru

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1782>

MAQOLA HAQIDA/O' STAT'YE

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 21

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

muhabbat, hijron, sog'inch, ayriliq, armon, lirik qahramon, ruhiy kechinma, ramz, tabiat obrazi, xalqona tafakkur, psixologizm, badiiy talqin

ANNOTATSIIYA/ АННОТАЦИЯ

Maqolada Shuhratning "Ikkiniz kezardik" va "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rlarida muhabbat, go'zallik, ma'naviy mas'uliyat, ayriliq va hijron kechinmalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi Shuhrat she'riyatida muhabbat va hijron kechinmalarining badiiy talqinini aniqlash, lirik qahramon ruhiyatini ifodalashdagi badiiy vositalarni ochish hamda tabiat va ramziy obrazlarning poetik vazifasini belgilashdan iborat. Shu bois maqolada shoimning tabiat obrazlari, ramz, metafora, tashxis, antiteza, leksik va sintaktik takror, parallelizm kabi poetik vositalardan foydalanish mahorati yoritiladi. "Ikkiniz kezardik" she'rida gul, g'uncha, bog' va "uvol" tushunchalarining axloqiy-estetik mazmuni, "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rida esa "sharob", "g'am-g'ussa", "hijron sahrosi" obrazlarining ramziy xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, shoimning muhabbatni faqat shaxsiy-hissiy munosabat emas, balki insonning axloqiy va ma'naviy qiyofasini belgilaydigan qadriyat sifatida talqin qilishi asoslanadi. Tahlil natijalari Shuhrat lirikasida muhabbat va hijronning bir-birini to'ldiruvchi ruhiy holatlar sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 21

KEYWORDS

love, hijran, longing, separation, regret, lyrical hero, emotional experience, symbol, nature imagery, folk-oriented thinking, psychology, artistic interpretation

ANNOTATION

The article analyzes the artistic interpretation of love, beauty, moral and spiritual responsibility, as well as the experiences of separation and hijran in Shuhrat's poems "Ikkiniz kezardik" and "Qarshimizdan soy chiqqanda". The main purpose of the article is to identify the specific features of the artistic interpretation of love and hijran in Shuhrat's poetry, reveal the artistic devices used to express the inner world of the lyrical hero, and determine the poetic function of natural and symbolic images. Accordingly, the article examines the poet's mastery in employing such poetic devices as images of nature, symbolism, metaphor, personification, antithesis, lexical and syntactic repetition, and parallelism. In the poem "Ikkiniz kezardik", the moral and aesthetic significance of the concepts of "flower", "bud", "garden", and "uvol" is revealed, while in "Qarshimizdan soy chiqqanda", the symbolic features of the images of "wine", "sorrow and anguish", and the "desert of hijran" are examined. The article also substantiates the poet's interpretation of love not merely as a personal emotional relationship, but as a value that determines a person's moral and spiritual character. The findings demonstrate that in Shuhrat's lyric poetry, love and hijran are presented as mutually complementary spiritual and emotional states.

Kirish

O'zbek she'riyati tarixida muhabbat mavzusi insonning ma'naviy olamini anglash, qalbiy kechinmalarini ifodalash va estetik tafakkurini namoyon etishning muhim vositalaridan biri sifatida shakllangan. Muhabbat mavzusi mumtoz adabiyotda ishq, vafo, hijron, visol, sog'inch va fidoyilik tushunchalari bilan uyg'un holda talqin etilgan bo'lsa, XX asr o'zbek she'riyatida insonning shaxsiy kechinmalari, ruhiy ziddiyatlari va hayotiy munosabatlari bilan bog'liq holda yanada rang-barang badiiy mazmun kasb etdi. Muhabbat lirikasining asosiy xususiyati shundaki, unda tashqi voqealardan ko'ra insonning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari va ruhiy harakati ustuvor ahamiyat kasb etadi. Lirik qahramonning tashqi olamga munosabati ham uning qalbidagi holat bilan belgilanadi. Shuning uchun tabiat manzarasi, oddiy bir detal, muloqot yoki hatto bitta so'z ham lirik matnda katta ma'no yukiga ega bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Shuhrat ijodi XX asr o'zbek adabiyotining o'ziga xos poetik hodisalaridan biri sifatida adabiyotshunoslikda turli nuqtayi nazarlardan o'rganib kelinmoqda. Shoimning ijodiy merosida Vatan, urush va tinchlik, inson taqdiri, mehnat, muhabbat, sadoqat, ayriliq va ma'naviy kamolot masalalari yetakchi o'rin tutadi. Biroq Shuhrat she'riyatining muhim qatlamlaridan birini tashkil etuvchi muhabbat lirikasi, ayniqsa, undagi muhabbat va hijron kechinmalarining psixologik hamda poetik talqini alohida tadqiqot obyekti sifatida izchil va kompleks tarzda yoritishni talab etadi. Chunki shoir lirikasida sevgi faqat individual hissiy holat emas, balki insonning axloqiy qiyofasi, hayotga munosabati, go'zallikni anglash darajasi va ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'langan murakkab estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Shuhrat ijodini o'rganish tarixida U. Normatovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Adabiyotshunos shoimning ijodiy yo'lini tahlil qilgan ekan, uning badiiy tafakkuridagi hayotiylik, xalqchilik va inson

ruhiyatiga e'tibor xususiyatlarini muhim poetik belgilar sifatida ko'rsatadi [8]. Ushbu qarash Shuhratning lirik merosini tahlil qilishda ham muhim nazariy asos bo'la oladi. Zero, shoir ko'pincha murakkab ruhiy holatlarni favqulodda yoki sun'iy vaziyatlar orqali emas, balki kundalik hayotda uchraydigan oddiy hodisalar vositasida tasvirlaydi. Oddiy suhbat, bir qarash, bog'dagi sayr, gul, yo'l, soy yoki ayriliq lahzasi lirik qahramon ruhiyatidagi chuqur ichki harakatni yuzaga chiqaruvchi poetik vositaga aylanadi.

Maqsud Shayxzodaning Shuhrat ijodiga bag'ishlangan kuzatishlari ham shoir poetikasining insoniy va ma'naviy asoslarini anglashda muhimdir. Shayxzoda ijodkor shaxsining burchi, so'z mas'uliyati va badiiy tafakkurning hayot bilan bog'liqligi haqida fikr yuritir ekan, adabiy asarning qiymati undagi insoniy mazmun va hayot haqiqatining badiiy ifodasi bilan belgilanajagini ta'kidlaydi [7]. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Shuhrat lirikasidagi muhabbat ham mavhum romantik tuyg'u tarzida emas, balki hayotiy munosabatlarni tizimida namoyon bo'ladi. Shoimning lirik qahramoni sevadi, quvonadi, hayratlanadi, ayriligni boshdan kechiradi, o'z kechinmalarini qayta angelaydi. Ana shu ruhiy harakat uning muhabbat lirikasiga psixologik tabiiylik bag'ishlaydi.

Jamol Kamolning Shuhrat she'rlarining uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotida shoir lirikasining poetik qurilishi, badiiy ifoda imkoniyatlari va individual uslubi masalalari muhim o'rin egallaydi [3]. Ushbu tadqiqotda Shuhrat she'riyatining sodda va tabiiy nutqqa yaqinligi, poetik fikrning hayotiy obrazlar orqali ifodalanishi kabi xususiyatlar e'tiborga olinadi. Mazkur nazariy qarashlar "Ikkiniz kezardik" hamda "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rlarini tahlil qilishda metodologik ahamiyat kasb etadi. Chunki har ikki she'rda katta hissiy va ma'naviy mazmun murakkab poetik konstruksiyalar emas, balki sodda hayotiy vaziyatlar vositasida ifodalanadi. Birinchi she'rda bog'dagi sayr va gulni uzish bilan bog'liq muloqot, ikkinchi she'rda esa ikki inson qarshisidan

soyning chiqishi muhabbat kechinmalarini ochuvchi poetik asosga aylanadi.

Shuhrat ijodiga oid biografik va adabiy-tanqidiy materiallar jamlangan “A dib ijodiga bir nazar” hamda “Shuhrat zamondoshlar xotirasida” kabi manbalar shoir shaxsiyati va ijodiy dunyosini yaxlit anglashda muhim ahamiyatga ega [4; 5]. Ushbu manbalarda shoirning hayotiy tajribasi, ijodiy qarashlari, zamondoshlari bilan munosabatlari hamda uning o'zbek adabiy jarayonidagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Bunday materiallar bevosita bitta she'rning poetik tahlilini amalga oshirishdan ko'ra, ijodkorning badiiy dunyoqarashi va individual uslubini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Shuhrat poetikasida insoniy munosabatlarga samimiy yondashuv, hayotning oddiy ko'rinishlaridan katta ma'naviy mazmun topish xususiyati shoirning umumiy ijodiy konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Shuhrat lirikasida badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi masalasi N. Soatovanning tadqiqotlarida ham alohida o'rganilgan. Xususan, shoir she'riyatidagi badiiy ifoda va tasvir vositalari tahliliga bag'ishlangan maqolada uning poetik nutqida metafora, ramz, tashxis va boshqa tasviriy vositalarning muhim estetik vazifa bajarishi qayd etiladi [11, 56-59]. Shuningdek, tadqiqotchining Shuhrat adabiy merosidagi an'ana va mahorat masalalariga bag'ishlangan monografik kuzatishlarida shoirning milliy adabiy an'analardan ijodiy foydalanishi, xalqona poetik tafakkur bilan individual badiiy uslubni uyg'unlashtira olgani ta'kidlanadi [10]. Bu masala, ayniqsa, muhabbat lirikasini tahlil qilishda muhimdir. Chunki “uvol” kabi xalqona tushunchaning she'riy matnda qo'llanishi faqat til hodisasi emas, balki milliy axloqiy-estetik tafakkurning poetik ifodasidir.

N. Soatovanning adabiy ta'sir va badiiy mahorat masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ham ijodkorning individual uslubini badiiy an'ana, poetik tafakkur va obraz yaratish tamoyillari bilan uzviy bog'liqlikda qaraladi [9]. Bunday yondashuv Shuhrat she'riyatidagi obrazlar tizimini birgina ramz yoki metafora sifatida emas, balki muayyan poetik tafakkur mahsuli sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Jumladan, gul, bog', g'uncha, soy va sahro kabi obrazlar dastlab real voqelik unsuri sifatida namoyon bo'lsa-da, lirik kontekstda ular inson ruhiyatini ifodalovchi ma'no qatlamlariga ega bo'ladi.

Muhabbat lirikasining poetik tabiati masalasini yoritishda lirik asarning psixologik asoslariga oid nazariy qarashlar ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Lirik she'rda voqea va hodisalar ko'pincha mustaqil syujet yaratish uchun emas, balki insonning ichki holatini ochish uchun xizmat qiladi. Shu bois lirik matnda tashqi voqelik bilan ichki kechinma o'rtasidagi munosabat yetakchi poetik tamoyillardan biri hisoblanadi. S. Zunnunova she'rning tug'ilishida ehtiros, iztirob, hayajon va kayfiyatning o'rni haqida fikr yuritir ekan, shoir hissiyotining teranligi kitobxon qalbiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri ekanini ta'kidlaydi [2, 3]. Mazkur fikr Shuhrat lirikasining psixologik tabiatini anglashda ham muhimdir. Chunki shoir she'rlarida hissiyot ko'pincha bevosita “men qayg'udaman” yoki “men sevaman” tarzidagi bayon orqali emas, balki badiiy vaziyat, detal, muloqot va obraz vositasida yuzaga chiqariladi.

Shuhratning “Ikkinim kezarlik” va “Qarshimizdan soy chiqqanda” she'rlarida ana shunday poetik tamoyil yaqqol kuzatiladi. “Ikkinim kezarlik” she'rda lirik kechinmaning markazida ikki insonning bog'da yonma-yon yurishi va gul bilan bog'liq kichik voqea turadi. Biroq ushbu voqea tashqi jihatdan sodda ko'rinsa-da, uning ichki semantik qatlamida muhabbat, go'zallik, rahm-shafqat va ma'naviy mas'uliyat masalalari mujassamlashadi. “Qarshimizdan soy chiqqanda” she'rda esa real tabiat hodisasi – soy – lirik qahramonlar munosabatidagi to'siq, masofa va hijron ehtimolini ifodalovchi poetik vositaga aylanadi [6, 40, 45]. Har ikki holatda ham tashqi olam unsurlari lirik qahramon ruhiyatini tasvirlash bilan birga, uning kechinmalarini shakllantiruvchi faol badiiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ramz va timsol masalalarini o'rganishda N. Rahimjonovning nazariy qarashlari muhim o'rin tutadi. Tadqiqotchi timsolning shaxsning ruhiy holati, ichki kayfiyati va psixologik kechinmalarini badiiy umumlashtirishdagi imkoniyatlariga e'tibor qaratadi [12, 228]. Shu nazariy tamoyil asosida Shuhrat lirikasidagi tabiat obrazlarini tahlil qilish mumkin. Masalan, “bog'” muhabbat va go'zallikning poetik makoni, “gul” nafislik va mehrning timsoli, “soy” to'siq va masofaning, “sahro” esa yolg'izlik va hijronning ramziy ifodasi sifatida talqin etiladi. Biroq bu obrazlarning ma'nosi oldindan qat'iy belgilangan ramziy sxema asosida emas, balki ular ishtirok etayotgan lirik vaziyat, nutqiy kontekst va qahramon ruhiyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Shuningdek, Sh. Aldashevaning XX asr oxiri o'zbek lirikasining janr va poetik shakllariga bag'ishlangan tadqiqotida zamonaviy lirik tafakkurning ichki tuzilishi, shakliy izlanishlar va poetik ifoda xususiyatlari keng tahlil qilingan [1]. Ushbu tadqiqotning metodologik ahamiyati shundaki, unda lirik asarni faqat mavzu nuqtayi nazaridan emas, balki uning poetik qurilishi, ichki ritmi, takror, parallelizm va

kompozitsion harakati bilan bog'liq holda o'rganish zarurligi anglashiladi. Shuhratning mazkur ikki she'rda ham sintaktik parallelizm va takror poetik mazmunni kuchaytiruvchi asosiy vositalardan biridir. Ayniqsa, “sen” va “men” birliklarining qarama-qarshi, ammo o'zaro bog'liq tarzda takrorlanishi muhabbat munosabatining psixologik dramatzimini kuchaytiradi.

Metodologiya

Tadqiqotda, avvalo, tarixiy-adabiy metoddan foydalanildi. Ushbu metod Shuhrat ijodining XX asr o'zbek she'riyati taraqqiyoti va lirik tafakkur an'analari bilan bog'liqligini aniqlashga xizmat qiladi. Shoirning muhabbat lirikasidagi obraz va motivlar o'zbek mumtoz hamda zamonaviy she'riyati tajribasi bilan umumiylik va individual xususiyatlar nuqtayi nazaridan baholanadi. Muhabbat, hijron, visol, sog'inchi va armon kabi an'anaviy poetik tushunchalar Shuhrat ijodida qanday yangicha hayotiy va psixologik mazmun kasb etgani mazkur metod asosida kuzatiladi.

Qiyosiy-tipologik metod yordamida “Ikkinim kezarlik” va “Qarshimizdan soy chiqqanda” she'rlaridagi umumiy va farqli poetik xususiyatlar aniqlanadi. Har ikki she'rda muhabbat lirikasi yetakchi mavzu bo'lsa-da, uning ifodalanish shakli turlicha. Birinchi she'rda yaqinlik, beg'uborlik va go'zallikni asrash g'oyasi ustun bo'lsa, ikkinchi she'rda muhabbatning iztirob, to'siq va hijron bilan bog'liq qirralari yetakchilik qiladi. Ularni qiyoslash orqali Shuhrat poetikasida muhabbat va hijronning bir-birini inkor etuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi ruhiy holatlar ekanini asoslanadi.

Psixologik tahlil metodi lirik qahramonning ichki kechinmalari dinamikasini aniqlashda qo'llanildi. Bunda qahramonning his-tuyg'ulari bevosita tavsiflangan joylarga emas, balki uning nutqi, harakati, sukuti, hayratlanishi va munosabatlaridagi o'zgarishlar ham tahlil qilinadi. Masalan, gulni uzish haqidagi taklif, “Uvol!” tarzidagi qisqa javob va undan keyingi hayrat lirik qahramon ruhiyatidagi ma'naviy anglash jarayonini yuzaga chiqaradi. Xuddi shuningdek, “sen” va “men” o'rtasidagi sintaktik munosabatlar orqali lirik qahramonning muhabbatdagi qabul qiluvchi, iztirobni o'z qalbida kechiruvchi holati ochiladi.

Struktur-semantik va poetik tahlil metodlari she'riy matndagi obrazlar, ramzlar, metaforalar, tashxis, antiteza, takror va parallel konstruksiyalarning mazmun hosil qilishdagi vazifasini belgilashga imkon beradi. Tadqiqotda badiiy vosita faqat uning nomini ko'rsatish bilan cheklanmay, uning lirik matndagi funksional vazifasi aniqlanadi. Jumladan, “g'uncha boqardi”, “hijron sahrosi”, “mehrning qo'shib oya sharoibni” kabi poetik birliklarning badiiy va psixologik yuklamasi kontekstual jihatdan tahlil qilinadi.

Kontekstual tahlil metodi esa alohida so'z yoki obrazning ma'nosini faqat lug'aviy jihatdan emas, balki uning she'r umumiy mazmuni, lirik vaziyat va obrazlar tizimidagi o'rni bilan bog'liq holda aniqlash imkonini beradi. Xususan, “uvol” tushunchasi oddiy so'z sifatida emas, balki xalqona axloqiy tafakkur, rahm-shafqat va tabiatga mas'uliyat munosabatini ifodalovchi semantik markaz sifatida talqin qilinadi. “Soy” obrazi ham faqat geografik yoki tabiiy hodisa emas, balki lirik qahramonlar munosabatida yuzaga kelgan masofa va to'siqni anglatadigan poetik birlik sifatida baholanadi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy-adabiy manbalar tahlili Shuhrat ijodi adabiyotshunoslikda uning hayoti va ijodiy faoliyati, uslubiy xususiyatlari, badiiy mahorati, an'ana va individuallik masalalari nuqtayi nazaridan o'rganilganini ko'rsatadi [3; 8; 9; 10; 11]. Biroq shoirning ayrim muhabbat she'rlarini o'zaro qiyoslash, ularda muhabbat va hijron kechinmalarining yagona ruhiy-estetik tizim sifatida namoyon bo'lishini aniqlash, tabiat obrazlarining psixologik funksiyasini ochish hamda badiiy detalning ma'naviy mazmun yaratishdagi rolini kompleks o'rganish masalasi alohida ilmiy yondashuvni talab etadi.

Mazkur tadqiqot aynan shu jihatga e'tibor qaratib, Shuhratning “Ikkinim kezarlik” va “Qarshimizdan soy chiqqanda” she'rlarini poetik, psixologik va semantik birlikda tahlil qilishni maqsad qiladi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiy-adabiy, qiyosiy-tipologik, psixologik, struktur-semantik va kontekstual tahlil metodlari tashkil etadi. Ushbu metodlarning o'zaro uyg'un qo'llanilishi shoir lirikasida muhabbatning go'zallik, ma'naviy mas'uliyat va yaqinlik bilan, hijronning esa to'siq, sog'inchi, ayriliq va ruhiy anglash bilan qanday bog'langanini aniqlash imkonini beradi. Natijada Shuhratning muhabbat lirikasi faqat an'anaviy sevgi motivlari doirasida emas, balki insonning ichki dunyosi va ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi murakkab poetik-estetik hodisa sifatida tadqiq etiladi.

Natijalar

Muhabbat lirikada muayyan voqeani bayon qilishdan ko'ra inson qalbida kechayotgan jarayonni ifodalashga xizmat qiladi. Shu ma'noda uning syujeti tashqi harakatdan ko'ra ichki harakatga asoslanadi. Lirik qahramonning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishi quvonchdan iztirobga, yaqinlikdan hijronga, umiddan armonga yuz tutishi she'rning ichki kompozitsion harakatini belgilaydi. Shuhrat she'rlarida ham muhabbatning

ana shu dinamik tabiati kuzatiladi. Demak, shoir poetikasida muhabbat statik holat emas, balki inson ruhiyatini o'zgartiradigan harakatdagi tuyg'u sifatida namoyon bo'ladi. Uning tarkibida mehr, hayajon, quvonch, ehtiyo, sog'inch va iztirob singari bir-biriga yaqin va ba'zan zid kechinmalar uyg'unlashadi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, S.Zunnunovaning: "She'r - juda katta ehtiros, iztirob, hayajon, kayfiyatning mahsuli. Shoirning hissiyot darajasi qanchalik teran bo'lsa, kitobxonning yuragiga shunchalik chuqur o'rinishadi. Bu qobiliyatdan tashqari juda katta mehnat" degan fikri Shuhratning lirik ijodidagi psixologik ta'sirchanlikni anglash uchun muhim nazariy mezon bo'la oladi. [2.3] Bu xususiyatni Shuhratning "Ikkinchi kezardik" she'ri misolida yaqqol ko'rish mumkin. She'r muhabbat mavzusining samimiy va hayotiy talqinini namoyon etadi. Uning boshlanishidayoq lirik qahramon va sevgilisi o'rtasidagi yaqinlik oddiy, tabiiy harakat orqali ifodalanaadi:

*Ikkinchi kezardik bog'ni yonma-yon,
Har g'uncha boqardi bizga ko'z suzib.
Ajoyib bir gulni ko'rganim zamon
Men dedim: - Shu gulni beraymi uzib! [6.40]*

Bu misralarda muhabbatning dastlabki belgisi "yonma-yon" holati orqali beriladi. "Yonma-yon" so'zi birlamchi ma'noda jismoniy yaqinlikni anglatasa-da, she'riy kontekstda u ruhiy yaqinlik va qalbiy uyg'unlik ma'nosini ham ifodalaydi. Shoir "muhabbat", "sevgi", "oshiq" kabi abstrakt tushunchalarni bevosita ta'riflamaydi. Ikki insonning bog'da birga kezishi, gulni ko'rishi va uni uzib berishni taklif qilishi kabi oddiy harakatlar orqali muhabbat muhitini yaratadi. Bu usul she'rning hayotiylikni ta'minlaydi. Chunki chin tuyg'u ko'pincha insonning oddiy xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. She'rdagi bog' obrazi ham alohida poetik vazifa bajaradi. Bog' bir tomondan tabiat manzarasi bo'lsa, ikkinchi tomondan muhabbat kechinmalarining poetik makonidir. U go'zallik, hayot va yangilanish bilan bog'liq estetik ma'nolarni mujassam etadi. Shuning uchun lirik qahramonning sevgilisi bilan aynan bog'da kezishi tasodifiy emas. Bog'dagi gul va g'unchalar muhabbatning nozikligi, beg'uborligi va yashovchanligini anglatuvchi obrazlarga aylanadi. "Har g'uncha boqardi bizga ko'z suzib" misrasida tashxis san'ati qo'llangan. G'unchaning inson kabi "ko'z suzishi" tabiatni jonlantirib, uni inson bilan ma'naviy munosabatga kirishuvchi tirik estetik olam sifatida tasavvur qilish imkonini beradi. Natijada tabiat ikki insonning holatini kuzatib turgan tirik muhit sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat psixologik paralelizmga yaqin poetik usulni yuzaga keltiradi: tashqi tabiatdagi holat lirik qahramonning ichki kechinmasi bilan uyg'unlashadi.

She'rdagi gul obrazi muhabbatning muhim badiiy ramzlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon "ajoyib bir gul"ni ko'rib, uni sevgilisiga berishni istaydi. Bu harakatning tashqi ma'nosi sovg'a qilish, ichki ma'nosi esa mehr va e'tiborni ifodalashdir. Gulning "uzib berilishi" orqali sevgiga xos nazokat va g'amxo'rlik namoyon bo'ladi. Biroq sevgilisining:

"Uvol!" deb rad etding.

degan javobi lirik vaziyatni keskin o'zgartiradi. "Uvol" so'zi bu yerda faqat gulni uzishning noto'g'ri ekanini bildirmaydi. Unda milliy-axloqiy qarashlar mujassam. O'zbek xalq tafakkurida "uvol" tushunchasi insonning tabiat va mavjudotga nisbatan mas'uliyatini ham anglatadi. Shu bois mazkur so'z she'rning ma'naviy markazlaridan biri vazifasini bajaradi. Sevgilining gulni uzishga qarshi chiqishi uning ichki ma'naviy dunyosi haqida tasavvur beradi. Bu detal orqali shoir muhabbat tushunchasini axloqiy mezon bilan bog'laydi. Chunki muhabbatning haqiqiylikni faqat oshiqning sevgilisiga gul olib berish yoki uni xursand qilish istagi bilan belgilanmaydi. Chin muhabbatda insonning atrof-muhitga, tabiatga va tirik mavjudotlarga munosabati ham aks etadi. Shu nuqtai nazardan sevgilining "Uvol!" degan munosabati uning ma'naviy qiyofasini ochuvchi badiiy detaldir. Lirik qahramonning:

Men qoldim hayron.

degan qisqa munosabati esa uning ruhiyatidagi ichki o'zgarishni ta'sirchan ifodalaydi. Uning hayronligi sevgilisining oddiy rad javobi ortidagi ma'naviy mazmunni anglash jarayonini bildiradi. Shu tariqa she'rda kichik hayotiy vaziyat orqali katta ma'naviy-estetik muammo yuzaga keladi.

Lirik qahramonning ruhiyati bevosita psixologik tavsif orqali emas, balki uning harakati va nutqi vositasida ochiladi: u gulni ko'radi, uni sevgilisiga berishni taklif qiladi, rad javobidan keyin hayron qoladi. Shu tarzda she'rdagi ichki harakatni shartli ravishda yaqinlik → quvonch → mehr ifodasi → rad javobi → hayronlik tarzida belgilash mumkin. Bu holat

lirik she'rda voqebandlik elementlari ham mavjudligini, kichik harakatlar esa ruhiy kechinmalar dinamikasini ta'minlashini ko'rsatadi. Qahramonning:

Munchalik rahmdil bo'lmasang, kishi!

degan munosabatida yengil ironik ohang seziladi. U hamrohining gulni uzishga rahm qilganini dastlab ortiqcha mehribonlik sifatida qabul qiladi. Ammo keyingi misralar bu qarashning biryozlama ekanini ko'rsatadi:

*Bu yerda charaqlab turgandan, inon,
Ko'ksingda qovjirab so'lgani yaxshi.*

Bu misralarda gul va ko'ks obrazlari o'rtasida ramziy aloqa yuzaga keladi. Gulning bog'da tabiiy holda yashashi uning hayoti davom etishini anglatadi. Uni uzib inson ko'ksiga yaqinlashtirish esa tashqi jihatdan go'zal ko'rinsa-da, uning hayotining tugashiga sabab bo'ladi. Demak, shoir tashqi go'zallikni egallash bilan haqiqiy hayot qadrini asrash o'rtasidagi ziddiyatni ilgari suradi.

Shunday qilib, ikki qahramon munosabati orqali ikki xil estetik-axloqiy qarash to'qnashadi. Birinchi qahramon go'zallikni ko'rib, uni egallashni istaydi; ikkinchi qahramon esa go'zallikning qadri uni o'zlashtirishda emas, balki asrashda ekanini anglaydi. Shuning uchun she'rdagi ziddiyat oddiy "gulni uzish yoki uzmaslik" masalasi emas. Uning zamirida insonning go'zallikka munosabati, tabiatni asrash va unga ozor bermaslik kabi falsafiy-axloqiy masalalar yotadi.

Shuhrat she'riyatida tabiat va inson ruhiyati o'rtasidagi munosabat mazkur she'r bilan cheklanmaydi. "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rida ham tabiatdagi oddiy bir voqelik, soyning paydo bo'lishi, lirik mazmunga ega bo'ladi. Soy obrazi ikki ma'no qatlamida namoyon bo'ladi: birinchi qatlam - real tabiat manzarasi; ikkinchi qatlam - ikki inson o'rtasida paydo bo'lgan to'siqning ramziy ifodasi. Shu jihatdan soyni hijronning bevosita ramzi sifatida emas, balki hijron ehtimolini yuzaga keltiruvchi poetik to'siq sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Soy oqib turgan suv, ya'ni harakatdagi tabiiy hodisa. Biroq uning paydo bo'lishi ikki insonning harakat yo'nalishini o'zgartiradi. Shu sababli soy obrazida harakat va to'siq tushunchalari bir vaqtning o'zida mujassamlashadi. Bu holat muhabbat yo'lining hayot yo'liga o'xshashligini anglatadi: u doimo tekis emas, unda to'siqlar, sinovlar va kutilmagan vaziyatlar uchraydi. Shoir mazkur falsafiy mazmunni alohida izohlamaydi, balki uni soy obrazining semantik imkoniyatlariga singdiradi. Natijada tashqi tabiat elementi psixologik ramz darajasiga ko'tariladi.

She'rning asosiy badiiy qurilishi "sen" va "men" munosabatiga asoslangan:

*Qarshimizdan soy chiqqanda,
Kech degan - sen, kechgan menman.
Mehring qo'shib o'ya sharobni
Ich degan - sen, ichgan menman. [6.45]*

Bu misralarda "sen"- harakatga unduvchi, "men" esa uni qabul qiluvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Biroq bu oddiy sub'ekt-ob'ekt munosabati emas. Lirik qahramonning ichki kechinmalarida "sen"ning har bir harakati "men"ning taqdiriga aylanadi. Shu jihatdan "degan - menman", "sotgan - olgan menman" kabi konstruksiyalar psixologik bog'liqlikni kuchaytiradi. Ayniqsa, "sen" va "men"so'zlarining muntazam takrorlanishi she'rning kompozitsion asosini tashkil etadi. Takror orqali ikki lirik sub'ekt o'rtasidagi munosabatning murakkabligi ochiladi: biri ta'sir etuvchi, ikkinchisi esa bu ta'simi o'z taqdirida kechiruvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, she'rda muhabbat ikki insonning oddiy munosabati emas, balki birining harakati ikkinchisining ruhiy holatiga ta'sir ko'rsatadigan murakkab psixologik aloqa sifatida talqin qilinadi.

She'rdagi "sharob" obrazi ham ramziy xususiyatga ega. U faqat ichimlik emas, balki muhabbat, ishq va ehtiros timsoli sifatida talqin qilinishi mumkin. "Mehring qo'shib" birikmasi sharobga ma'naviy mazmun yuklaydi. Muhabbat go'yo insonga ichiriladigan sharobga aylanadi: uni taklif qilgan "sen", qabul qilgan "men". Shu tariqa "sharob" obrazi ishqning insonni o'ziga rom etuvchi va uning ruhiy holatini o'zgartiruvchi kuchini ifodalaydi.

She'rda muhabbat faqat baxt va shodlik manbai sifatida emas, balki insonni ruhan sinovdan o'tkazuvchi tuyg'u sifatida ham talqin qilinadi:

*Muhabbatning g'am-g'ussasin
Sotgan - sensan, olgan menman.
G'amu hijron sahrasidan
Ketgan - sensan, olgan menman..*

Bu misralarda *“sotmoq”* va *“olmoq”* fe'llari ko'chma ma'noda qo'llangan. Muhabbatning *“g'am-g'ussasi”* moddiy narsa emas, ammo shoir uni go'yo insonlar o'rtasida almashinadigan narsa kabi tasvirlaydi. Natijada o'ziga xos metaforik obraz yuzaga keladi: *“sen”* muhabbatning g'amini *“sotadi”*, lirik qahramon esa uni *“sotib oladi”*. Bu orqali muhabbatning og'ir yukini qabul qilish va uning iztirobini o'z zimmasiga olish ma'nosi kuchayadi.

Ayniqsa, *“g'amu hijron sahrasi”* birikmasi lirik qahramonning ruhiy holatini keng qamrovda ifodalaydi. Professor N. Rahimjonov she'riyatdagi ramziy obrazlar haqida so'z yuritir ekan, shaxsning muayyan psixologik holati va kayfiyatini chizish, suratlantirish timsolning muhim belgilaridan biri ekanini ta'kidlaydi. [12.228] Bu jihat Shuhrat she'riyatidagi *“sahro”* obrazida ham namoyon bo'ladi.

Sahro bu yerda oddiy geografik makon emas, balki lirik qahramonning ruhiy holatini ifodalovchi obrazdir. *“G'amu hijron sahrasi”* - ayriliq, yolg'izlik, iztirob va ruhiy bo'shliq timsoli. *“Sen”* bu sahrodan ketadi, ammo *“men”* undan *“olgan”* narsani - ya'ni hijron va g'amning ma'naviy yukini - o'z qalbida saqlab qoladi. Shu sababli *“ketgan - sensan, olgan menman”* qarama-qarshiligi she'rning dramatik ta'sirini kuchaytiradi.

Parchada bir xil sintaktik qurilishning takrorlanishiga ham alohida e'tibor berish lozim:

*Kech degan - sen, kechgan menman.
Ich degan - sen, ichgan menman.
Sotgan - sensan, olgan menman.
Ketgan - sensan, olgan menman.*

Bu konstruksiyalar sintaktik parallelizm hosil qiladi. Har bir misrada *“sen”* va *“men”* munosabati yangi mazmun bilan to'ldiriladi. Shu bilan birga, antiteza she'rning ichki drammatizmini ta'minlaydi. Dastlab *“degan - qilgan”*, keyin *“sotgan - olgan”*, *“ketgan - olgan”* munosabatlari orqali harakat va natija o'rtasidagi qarama-qarshilik yuzaga keladi. Natijada shoir muhabbatdagi bir tomonlama kechinmani emas, balki ikki inson taqdirining bir-biriga chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Ana shu jihatdan *“Ikkiniz kezardik”* va *“Qarshimizdan soy chiqqanda”* she'rlari o'zaro poetik aloqaga kirishadi. Birinchi she'rda muhabbat yaqinlik va go'zallik muhitida namoyon bo'lsa, ikkinchi she'rda shu yaqinlik oldida paydo bo'lgan to'siq va uning ruhiy oqibatlari markazga chiqadi. Birinchi she'rda bog' - yaqinlik va muhabbat muhiti; gul - go'zallik va mehr; g'uncha - nafosat va beg'uborlik; soy - to'siq va masofa ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Bu obrazlar tashqi tabiat tasviri sifatida boshlanib, lirik qahramonning ichki dunyosiga ko'chadi. Shu orqali psixologik parallelizm hosil bo'ladi. Muhimi, tabiat qahramonning ruhiy holatini shunchaki aks ettirmaydi, balki uning kechinmasini shakllantirishda ishtirok etadi. *“Ikkiniz kezardik”*da gulni uzish yoki uzmaslik masalasi muhabbatning axloqiy mazmunini ochsa, *“Qarshimizdan soy chiqqanda”*da soyning paydo bo'lishi lirik vaziyatni o'zgartiradi va to'siq motivini yuzaga keltiradi. Demak, tabiat obrazlari syujet va psixologik kompozitsiyaning faol unsurlariga aylanadi.

Muhokama

Shuhrat she'riyatida xalqona tafakkurning she'riy matnga tabiiy singdirilishi ham muhim xususiyatdir. *“Uvol”* tushunchasi ana shu jihatdan ayniqsa ahamiyatli. Unda milliy axloq, tabiatga munosabat va insonning o'z xatti-harakatlari uchun ma'naviy mas'uliyati mujassam. Shoirning xalqona uslubi faqat alohida so'z va iboralarda emas, balki muhabbatni talqin qilish usulida ham namoyon bo'ladi. Muhabbatning beg'uborligi, yorga ehtirom, gulga ozor bermaslik, tabiatni asrash kabi tushunchalar bir butun milliy-axloqiy dunyoqarashni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan, Shuhrat muhabbat lirikasida milliylik va umuminsoniylikni uyg'unlashtira olgan.

Shoir muhabbatni faqat oshiq va ma'shuq o'rtasidagi hissiy munosabat sifatida talqin qilmaydi. Uning she'rlarida muhabbat insonning ma'naviy qiyofasi, axloqiy mezonlari, tabiatga munosabati va ichki pokligi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Shu ma'noda muhabbat insonni ma'nan yuksaltiruvchi tuyg'uga aylanadi.

Shuhratning muhabbat lirikasida badiiy detal ham katta ahamiyatga ega. Shoir katta psixologik mazmuni kichik detal orqali ifodalaydi. *“Ikkiniz kezardik”*da gul ana shunday detaldir. Uning atrofida butun bir ruhiy vaziyat shakllanadi: lirik qahramon gulni ko'radi, uni sevgilisiga berishni istaydi, sevgilisi rad etadi va qahramon hayron qoladi. Shu tarzda birgina gul muhabbat, mehr, go'zallik, tabiat va axloqiy mas'uliyat tushunchalarini bir nuqtada birlashtiradi. *“Qarshimizdan soy chiqqanda”*da esa soy real manzaradan ramziy obraz darajasiga ko'tarilib, insonlar o'rtasidagi masofa va hayot yo'lidagi to'siqlarni anglatadi.

Shuhratning muhabbat lirikasida qarama-qarshi holatlarni yonma-yon qo'yish ham muhim badiiy usuldur. *“Ikkiniz kezardik”*da birga yurish - ayriliq ehtimoli, *gul - uvol, taklif - rad javobi, quvonch - hayronlik*

munosabatlari mavjud. *“Qarshimizdan soy chiqqanda”*da esa yaqinlik - to'siq, harakat - to'xtash, muhabbat - hijron ehtimoli, ketish - qolish kabi ma'noviy qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Bunday kontrastlar she'rda emotsional kuchlanishni oshiradi va lirik qahramonning ruhiy holatidagi o'zgarishni ta'sirchan ifodalaydi.

Shuhrat muhabbat mavzusida murakkab va balandparvoz ifodalardan ko'ra tabiiy nutqqa yaqin uslubni tanlaydi. *“Shu gulni beraymi uzib!”* kabi oddiy savolning o'zida oshiqning mehri va samimiyligi aks etadi. Lirik qahramon o'z tuyg'usini uzun ta'riflar bilan emas, amaliy taklif orqali ifodalaydi. Sevgilining *“Uvol!”* degan birgina so'zi esa butun vaziyatning ma'naviy yo'nalishini o'zgartiradi. Shu jihatdan she'riy nutqning soddaligi badiiy qashshoqlik emas, balki mazmunning tabiiy va ta'sirchan ifodalanganidan dalolat beradi.

Shuhrat she'riyatida muhabbat va hijronni alohida holatlar sifatida qarash to'liq tasavvur bermaydi. Ular ichki jihatdan bir-biriga bog'langan. Muhabbat qanchalik chuqur bo'lsa, ayriliqning ruhiy ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Sevgi inson uchun qadrli bo'lgani sababli uni yo'qotish yoki undan uzoqlashish ehtimoli hijron tuyg'usini keltirib chiqaradi. Shuhrat talqinida bu jarayonni shartli ravishda yaqinlik → muhabbat → to'siq → hijron → sog'inch → ruhiy anglash tarzida belgilash mumkin.

Bu jarayonda hijron muhabbatni inkor qilmaydi, aksincha, uning qadrini yanada oshiradi. Ayriliqda inson o'z tuyg'usining haqiqiy mohiyatini chuqurroq anglaydi. Shu bois shoir talqinida hijron muhabbatning qarama-qarshisi emas, uning ichki davomi sifatida namoyon bo'ladi. Hijronning tabiiy davomi sifatida sog'inch tuyg'usi shakllanadi. Sog'inch esa insonning yo'q yoki uzoqdagi shaxs bilan ruhiy aloqasini saqlab turishi bilan xarakterlanadi.

Shuhrat lirikasida bunday kechinmalar tashqi voqeadan ko'ra xotira bilan bog'liq holda ta'sirchan tus oladi. Lirik qahramon uchun sevgilisi bilan bog'liq oddiy manzara, gul, bog' yoki yo'lning o'zi xotira manbaiga aylanishi mumkin. Bu holat muhabbat lirikasidagi psixologik vaqt xususiyati bilan bog'liq. Voqea o'tib ketishi mumkin, ammo uning inson qalbida qoldirgan ta'siri saqlanib qoladi. Shuning uchun lirik qahramonning kechinmasi faqat *“hozir”* bilan cheklanmaydi: u o'tmishni eslaydi, hozirgi holatni his qiladi va kelajakni tasavvur qiladi.

Tahlillar asosida Shuhrat muhabbat lirikasining bir qator o'ziga xos xususiyatlarini ajratish mumkin. Avvalo, hayotiylik - muhabbat katta va g'ayrioddiy voqealar orqali emas, oddiy hayotiy holatlar vositasida ifodalanadi. Ikkinchidan, samimiyluk - lirik qahramonning hislari tabiiy va sun'iylikdan xoli tarzda beriladi. Uchinchidan, psixologizm - tashqi harakat ortida ichki ruhiy o'zgarishlar yotadi. To'rtinchidan, ramziylik - gul, bog', g'uncha, soy, sharob, sahra kabi obrazlar predmetlik ma'nosi bilan birga ramziy mazmun ham kasb etadi. Beshinchidan, xalqonalik - milliy tafakkur, xalq tili va axloqiy qarashlar she'riy matnga tabiiy singdiriladi. Oltinchidan, muhabbat va hijronning dialektik birligi - bu ikki holat bir-biriga qarama-qarshi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi kechinmalar sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tariqa, Shuhrat she'riyatida tabiat obrazlari, badiiy detallar, ramz, antiteza, sintaktik parallelizm, tashxis va xalqona ifoda vositalari o'zaro uyg'unlashib, muhabbat kechinmalarining psixologik va estetik mazmunini ochishga xizmat qiladi. Shoirning badiiy mahorati murakkab ruhiy holatlarni oddiy hayotiy vaziyatlar orqali ifodalash, kichik detalga katta ma'no yuklash va tabiat manzarasini inson qalbi bilan uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi.

Shuhratning *“Ikkiniz kezardik”* va *“Qarshimizdan soy chiqqanda”* she'rlari shoir lirikasida muhabbat va hijron kechinmalarining o'zaro uzviy bog'liq holda talqin etilganini ko'rsatadi. *“Ikkiniz kezardik”*da kichik lirik syujet - ikki kishining bog'da sayri, gulni ko'rish va uni uzish haqidagi muloqoti orqali go'zallik, hayot qadri, tabiatni asrash va insonning ma'naviy mas'uliyati kabi keng qamrovli masalalar yoritiladi. Gul, g'uncha va bog' obrazlari tabiatning oddiy manzaralari bo'lib qolmay, insonning go'zallikka munosabatini ochuvchi ramziy vositalarga aylanadi. Ayniqsa, *“Uvol!”* so'zi she'rning ma'naviy kaliti sifatida namoyon bo'lib, milliy axloqiy tafakkurdagi rahm-shafqat, tiriklikni qadrlash va tabiatni asrash kabi tushunchalarni poetik mazmun bilan boyitadi.

*“Qarshimizdan soy chiqqanda”*da esa muhabbatning inson qalbidagi iztirobli ta'siri va uning hijron bilan bog'liq qirralari markazga chiqadi. Soy obrazi to'siq va masofaning, *“sharob”* muhabbat va ehtirossing, *“g'am-g'ussa”* hamda *“hijron sahrasi”* esa ruhiy iztirobning ramziy ifodasiga aylanadi. *“Sen”* va *“men”* so'zlarining takrori, *“sotgan - olgan”*, *“ketgan - olgan”* kabi qarama-qarshi konstruksiyalar lirik qahramonning ruhiy holatini kuchaytirib, she'rga psixologik drammatizm bag'ishlaydi.

Ikki she'rda ham tashqi tabiat bilan insonning ichki dunyosi o'rtasidagi munosabat muhim poetik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi she'rda tabiatdan insonning ma'naviy olamiga, ikkinchi she'rda esa muhabbatning ichki kechinmalaridan hijron va ruhiy iztirobga harakat kuzatiladi. Shu ma'noda tabiat Shuhrat lirikasida shunchaki manzara emas,

balki lirik kechinmalarni shakllantiruvchi va ularning ma'nosini chuqurlashtiruvchi faol badiiy vositadir.

Umuman, mazkur she'rlar tahlili Shuhrat lirikasida muhabbatning faqat romantik tuyg'u sifatida emas, balki insonning go'zallikka munosabati, axloqiy tanlovi, ma'naviy mas'uliyati, sadoqati va ruhiy tajribasini belgilaydigan murakkab estetik-ma'naviy hodisa sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi. Muhabbat insonning qalbiy go'zalligini namoyon etsa, hijron uning ruhiy chuqurligini ochadi; sog'inch esa bu tuyg'ularni xotira va ma'naviy ehtiyoj darajasiga ko'taradi.

Shu ma'noda "Ikkinchi kezardik" va "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rlari bir-birini mazmunan va poetik jihatdan to'ldirib, Shuhrat she'riyatida muhabbatning go'zallikni anglash, uni asrash, uning quvonchi va iztirobini qabul qilish orqali insonning ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi poetik qadriyat ekanini tasdiqlaydi. Shoirning badiiy mahorati esa oddiy hayotiy vaziyatlar va tabiat detallari orqali inson qalbidagi murakkab kechinmalarni ochish, ramziy obrazlar va poetik vositalar yordamida ularga keng ma'naviy-falsafiy mazmun berishida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Shuhratning "Ikkinchi kezardik" va "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rlari shoir lirikasida muhabbat mavzusining turli estetik va psixologik qirralarda talqin etilganini ko'rsatadi. "Ikkinchi kezardik"da kichik lirik syujet -ikki kishining bog'da sayri, gulni ko'rish va uni uzish haqidagi muloqoti orqali go'zallik, hayot qadri, tabiatni asrash va insonning ma'naviy mas'uliyati kabi keng qamrovli masalalar yoritiladi. She'rdagi gul, g'uncha va bog' obrazlari tabiatning oddiy manzaralari bo'lib qolmay, insonning go'zallikka munosabatini ochuvchi ramziy vositalarga aylanadi. Ayniqsa, "Uvol!" so'zi asarning ma'naviy kaliti sifatida namoyon bo'lib,

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алдашева Ш. 70-90 йиллар ўзбек лирикасида тўртлик, саккизлик ва шеърининг туркуми табиати: Филол.фанл.фалс.докт.дисс – Тошкент., 2019.
2. Зуннунова С. Танланган асарлар.– Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – I том.
3. Жамол Камол. Шухрат шеърининг услубий хусусиятлари / Лирик шеърят. – Тошкент.: Фан, 1986
4. Шухрат. Адиб ижодига бир назар. – Тошкент.: Шарк, 1998
5. Шухрат замондошлар хотирасида. – Тошкент.: Ўзбекистон, 2008
6. Шухрат. Ёшлигим тонгида сени учратдим. –Тошкент, 2017.

milliy axloqiy tafakkurdagi rahm-shafqat, isrofdan tiyilish, tiriklikni qadrlash va tabiatni asrash kabi tushunchalarni poetik mazmun bilan boyitadi. "Qarshimizdan soy chiqqanda"da esa muhabbatning inson qalbidagi iztirobli ta'siri markazga chiqadi. "Sharob", "g'am-g'ussa", "hijron sahrosi" kabi obrazlar muhabbatning quvonchli va og'riqli qirralarini ifodalashga xizmat qiladi. "Sen" va "men" so'zlarining takrori, "sotgan - olgan", "ketgan - olgan" kabi qarama-qarshi konstruksiyalar esa lirik qahramonning ruhiy holatini kuchaytirib, she'rga psixologik drammatizm bag'ishlaydi.

Shuningdek, ikki she'rda ham tabiat va narsa-buyum obrazlari insonning ichki dunyosini ochishga xizmat qiladi. Birinchi she'rda tashqi tabiatdan insonning ma'naviy olamiga, ikkinchi she'rda esa muhabbatning ichki kechinmalaridan hijron va ruhiy iztirobga harakat kuzatiladi. Umuman, mazkur she'rlar tahlili Shuhrat lirikasida muhabbatning faqat romantik tuyg'u sifatida emas, balki insonning go'zallikka munosabati, axloqiy tanlovi, ma'naviy mas'uliyati, sadoqati va ruhiy tajribasini belgilaydigan murakkab estetik-ma'naviy hodisa sifatida talqin qilinganini ko'rsatadi. Shoirning badiiy mahorati esa kichik lirik vaziyatlar orqali katta ma'naviy-falsafiy mazmunlarni ochish, ramziy obrazlar va poetik vositalar yordamida inson qalbidagi nozik kechinmalarni ta'sirchan ifodalashida namoyon bo'ladi.

Shu ma'noda "Ikkinchi kezardik" va "Qarshimizdan soy chiqqanda" she'rlari bir-birini mazmunan to'ldirib, Shuhrat she'riyatida muhabbat - go'zallikni anglash, uni asrash, uning quvonchi va iztirobini qabul qilish orqali insonning ma'naviy qiyofasini namoyon etuvchi poetik qadriyat ekanini tasdiqlaydi.

7. Шайхзода. М. Калам ва бурч // Шарк юлдузи. №5, 1967
8. Норматов У. Шухрат. – Тошкент.: Ғ.Ғулом номидаги бadiiy адабиёт нашриёти, 1969
9. Soatova N. Adabiy ta'sir va badiiy mahorat. – Toshkent.: ZEBO PRINTS, 2025.
10. Соатова Н. Шухрат адабий меросида анъана ва маҳорат. – Toshkent.: "VNESHINVESTPROM", 2022.
11. Soatova N. Shuhrat lirikasida badiiy ifoda tasvir vositalari // Ilm sarchashmalari. – Urganch: 2013. №10.
12. Раҳимжонов Н. Мустиқиллик даври ўзбек шеърят. – Toshkent: Фан, 2007. – Б. 228.